

Vatan yagonadir,
Vatan Gittadir!

N:13 (66970)

2014-yil
31-mart

TONG YULDUZI

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

2-aprel - Xalqaro
bolalar kitobi kuni

USHBU
SONDA:

BIR TADBIR
BO'LDIKI...

2-bet

«SHUMTAKALAR»
MEHMONIMIZ

8-bet

QALDIRG'OCHLAR
BAYOZI

3-4-5-6-betlar

QALBDA
BAHOR
SHUKUHI

7-bet

JONIVORLAR
OLAMI

8-bet



«Ona yurt erkatoylari»



Oybek bellashuvga shay turibdi. U bugungi tadbirga g'oliblikni qo'lga kiritmoqchiga o'xshaydi. Ammo belgilangan shartlarni a'lo darajada bajarish unga oson bo'lmaydi. Chunki poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi 26-maktabning 2-«V» sinfiga rahbarlik qilayotgan Munisxon opa Yusupova har doimgidek tadbirni puxta tashkillashtirgan, savollar ham oddiy emas. Jonkuyar ustoz «Yilning eng yaxshi sinf rahbari – 2013» ko'rik-tanlovining shahar bosqichida faxrli o'rinni qo'lga kiritgani ham bejiz emas, albatta.

Yil. ABDULLAYEV olgan surat

BIR TADBIR
BO'LDIKI...



Mana, «O'zbekim o'g'lonlari» mavzusidagi bellashuvga barcha ishtirokchi bolalar shay bo'lib turishibdi.

Munisxon opa tadbirni ingliz tilida ochib, o'quvchilarga qiziqarli bellashuvda omad yor bo'lishini tiladi.

Bolajonlar birinchi shart bo'yicha belgilangan matnni ifodali o'qib, Navro'z bayramining tarixi, milliy urf-odatlarimiz haqida yig'ilganlarga atroflicha ma'lumot berib o'tishdi. «Tezkor savol-javob» shartida esa o'quvchilar o'zlarining topqirlig-u bilag'onliklarini namoyish etishdi. To'qqiz o'g'lonning tezkorlik bilan bergan javoblari hakamlar

dan o'tkazishdi. Arqon tortish-u kurash bellashuvlari o'tkazilayotganda, tomoshabinlar ishtirokchi bolajonlarni qo'llab-quvvatlab turishdi. Ushbu shartda o'z ephilligini namoyish etgan Oybek Murodov, Kamronbek Gayupov, Humoyun Niyatqobulov, Muzaffar Nurullayev, Muhriddin Rahmatov singari bolalar barchaning olqishiga sazovor bo'ldi.



Kecha so'ngida maktab direktori Shoira opa Ibragimova, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Mahmuda Sayfiddinova taassurotlarini bayon etib, g'oliblarga «Faxriy yorliq» va esdalik sovg'alarini topshirdilar. O'quvchilarining zukkoligi-yu ephilligini ko'rgan sinf rahbari Munisxon opa Yusupovaning xursandchiligini esa suratga muhrladik.

Muzaffar AHMEDOV.
M. AZIMOV olgan suratlar



hay'ati tomonidan munosib baholab borildi: shartlar oralig'ida xonanda Husniddin A'zamov tomonidan ijro etilgan qo'shiqqa bolajonlar miriqib raqsga tushdilar.

Navbatdagi shartda ishtirokchilar mehnat fanidan olgan bilimlarini sinov-



DOSHQOZONDA SUMALAK,
KO'NGILDA EZGU TILAK

Yurtimizda davom etayotgan Navro'z tantanalari-yu, sumalak bazmi haqida gazetamizning o'tgan sonlarida ma'lumot berib o'tgan edik. Bugun esa sizlarga «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida bo'lib o'tgan ajoyib bayram haqida so'zlab bermoqchimiz.

Korxonra rahbariyati tomonidan tashkillashtirilib, ishchi-xodimlarning uyushqoqligi bilan tayyor bo'lgan sumalakdan barcha bahramand bo'ldi. Jumladan, «Tong yulduzi», «Klass», «Gulxan» va «G'uncha» kabi bolalar nashrlari xodimlari ham to'kin dasturxon atrofida jam bo'lishdi. Bayram dasturxoniga esa, albatta, palovxonto'ra va bahoriy taomlar tortildi. Bayram tadbiri barchaga zavq-u shavq ulashdi.

HAR KUNING BO'LSIN
NAVRO'Z!

Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 41-umumta'lim maktabida Navro'z bayramiga bag'ishlab «Har kunning bo'lsin Navro'z!» shiori ostida bayram kechasi bo'lib o'tdi. Tadbirni maktab direktori Gulnoza Muzaffarova kirish so'zi bilan ochib, barcha o'quvchilarni Navro'z ayyomi bilan qutladi.

Tadbirni o'tkazishdan maqsad, otabobolarimizdan meros qolgan milliy qadriyatlarimiz va urf-odatlarimizni yoshlar ongiga chuqur singdirish, xalq og'zaki ijodi, milliy xalq o'yinlarini kelgusi avlodlarga yetkazishdan iboratdir, – deydi maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Ziyoda Tosheva.

Tadbir 5-sinf o'quvchilari o'rtasida tashkil etilib, ular turli shartlar bo'yicha o'zaro bellashdilar.

Birinchi shartda ishtirokchi guruhlar milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizga tayangan

holda o'zlarini tanishtirdilar. Ikkinchi shartda esa bolajonlar «Lanka» o'yini tarixi haqida bir-biridan qiziqarli ma'lumotlar keltirib, bu o'yinni qanchalik mahorat bilan o'ynay olishlarini yig'ilganlarga namoyish etdilar. Quvonarlisi, o'quvchilar har bir belgilangan shartni ephillik va chaqqonlik bilan bajarishdi.

Tadbir so'ngida hakamlar hay'ati a'zolari qatnashchilarni shartlar bo'yicha chiqishlarini baholab, g'olib va sov-rindorlarni «Faxriy yorliq» va esdalik sovg'alari bilan taqdirladilar.

O'z muxbirimiz





Dostonlari chiqmagay yoddan,
So'rang buni Majnun, Farhodan,
Layli, Shirin gaddi shamshoddan,
Navoiy bobomlar.

Navoiy bobomlar.
Shamday yontib, qalamday ozgan,
Ta'lim olib, «qush tilin» yozgan.
Hazrat Attor, Jomiy ustozdan,
Navoiy bobomlar.

Navoiy bobomlar.
Bizlar uchun qutlug' imkonidir,
Mag'zin chaqib, chanoqog'ing qondir.
G'azallari ma'noga kondir,
Navoiy bobomlar.

Navoiy bobomlar.
Tilimizni yo'qdan bor etgan,
Jahon bo'ylab shuhrati ketgan,
Qiyosi yo'q – maqomga yetgan,
Navoiy bobomlar.

NAVOIY BOBOMLAR

8

– Bobo, kenja nabirangiz
Necha yoshga chiqdi hozir?
– Kenjam Nazir,
Men qanchaga chiqqan bo'lsam,
Shuncha oylik bo'ldi, bo'tam.
– Siz qanchaga chiqdingiz?
Qaytib-qaytib so'rar Jalon.
– Yetmish sahktiz yoshga chiqdik,
Nabiramiz ikkovlon.
– Vay, qiziq, xo'sh, qanday?
– Mening yoshim unihga qo'shganda...
Kim topadi Rozmat bobo
Qancha yoshga to'lganligin,
Nabirasi Nazir esa
Necha oylik bo'lganligin?..

BOBO, NECHA YOSHIDASIZ?



Tursunboy ADASHBOYEV

QALDIRG'OCHLAR BAYOZI



Tong yulduzi – 2014




O'g'lim terar boychechak,
O'yinni ham unutgan.
Bahor esa osmonga,
Ko'ylak tikar bulutdan.

Nashrga tayyorlaganlar:


F. ADILOVA,
S. TURSINOV,
A. KARIMOV,
N. ABDULLAYEVA,
F. MATYOQUBOV (rassom),
O. ORIPOV (dizayner).

«Tong yulduzi» kutubxonasi
Toshkent – 2014



Toling bargi suvga tushib
Qayiq bo'ldi.
Bu, ayniqsa, chumoliga
Loyiq bo'ldi.
Qo'sh qirg'oqni to'liqin yalab,
Ko'kka sapchir,
Eshakni-ku bitta o'zi,
Eshar abtir,
Tayinlashmay,
Oshnalar qoldi gap-so'z
Chumoli ham, jo'nab ketdi,
Xayrlashmay.

XAYRLASHMAY



Jajji maymun o'rmonda
Sajr etardi aylanib,
U to'satdan uchratdi
Igna to'ni jayrani.
Qarab u yon-bu yonga,
Xayllari bo'lindi.
Biroz yurgach so'qmoqda,
Tiptatikan ko'rindi.
Maymun esa alanglab,
Zimdan boqar o'ziga,
Igna bo'lib ko'rinar,
Jayra, Kirpi ko'ziga...

IGNA BO'LIB



KITOB O'QIB,


ZAVQLANING

Aziz o'quvchilar! Sizga 2-aprel – Xalqaro bolalar kitobi kuni munosabati bilan ajoyib sovg'a tayyorladik.

Sevimli shoir bobongiz Tursunboy Adashboyevning quvnoq she'rlari sizga yaxshi tanish. Ularning «Kamolning olmasi» nomli ilk kitoblari talablik yillaridayoq nashr etilgan. Keyinchalik «Biz, sayohatchilar», «Surnay», «Nur daryo», «Olatog' – lolatog'», «Sovg'a», «Sichqonning orzusi», «Uch bo'taloq va sirli qovoq» kabi to'plamlari sizning kitob javoningizdan munosib o'rin egallagan bo'lishi kerak.

Ustoz boboning hazil-mutoyibaga yo'g'rilgan qator asarlari rus, latish, qozoq, tojik tillariga o'girilib, nashr etilgan. O'z navbatida, jahon bolalar she'riyati vakillarining asarlarini yosh kitobxonlar Tursunboy Adashboyevning tarjimalari orqali sevib o'qishmoqda.

Bugun esa ardoqli adibimizning yangi she'rlarini jamlab, «Qaldirg'ochlar bayozi» nomli kitobcha tayyorladik. Umid qilamiz, ushbu kitobcha ham sizni befarq goldirmaydi.



TADBIRKOR JO'JA

Shatir-shutur yomg'ir quyib,
Tarnovlardan suvlar oqar.
Tuxumidan chiqqan jo'ja,
Olazarak, hayron boqar.
Toy-toy bosib chiqdi sirtga,
Chorlar uni yo'lak, ko'cha.
Olib tuxum po'chog'ini,
Zontik qilib ketdi jo'ja.
Yoqa ushlab qoldi Xo'roz,
Hayron G'ulg'ul, Laylak daroz.

Nasimiz – nasabimiz,
 Burgutlarga taqalar.
 Shu boisdan, ismimiz,
 Lochin, dey atalar.
 Quyon qochib qutulmas,
 Yartim metr qulochin.
 Kalamush, sichqonlarni,
 Topamiz-da ilojin.
 Ouchi zoti o'ljasin,
 Doolagani yaxshiroq.
 Tullilarni burgutlar,
 Ovlagani yaxshiroq.

LOCHIN



Kun nuridan taft olib,
 Hil-hil pishdi shaftoli.
 Xo'voy ko'rib to'satdan,
 Tosh irg'itib o'shatdan.
 Soldi qo'yin-qo'niga,
 Bir donasi lurnida.
 Bo'lmas edi shoshmasdan,
 Lekin devor oshmasdan.
 Ko'yilagin tashlab qochdi,
 Gornini qashlab qochdi.

SHAFTOLI



NAURO'Z TUSHIB KELGACH TOG'DAN

Toblanib
 Qish ayozida,
 Qaldirg'ochlar
 Bayozida,
 Navro'z tushib kelgach tog'dan.

Boychechakdan
 Durra boshda,
 Ta'zim qilib
 Yurt, quyoshga,
 Navro'z tushib kelgach tog'dan.

Qo'lga olib
 Yangroq torin.
 Ko'z-ko'z qilib,
 Bisot borin,
 Navro'z tushib kelgach tog'dan.

Fayz ulashib
 Tong azonda.
 Sumalaklar
 Doshqozonda,
 Navro'z tushib kelgach tog'dan.

Quyosh – ko'kning
 Chirmandasi,
 Binafshalar
 Qilgay asir,
 Navro'z tushib kelgach tog'dan.


14

CHAQMOQ

O'g'lim terar boychechak,
 O'yinni ham unutgan.
 Bahor esa osmonga,
 Ko'ylak tikar bulutdan.

Bir bola tuzoq qo'yib,
 Chumchuq ushlar, qush o'vlar.
 Rahmat aka otini,
 O'tga qo'yar tushovlab.

O'g'lim chopar men tomon,
 Gul sayrini unutgan.
 Bahor ko'ylak kiydirdi,
 Ko'k egniga bulutdan.



3




Mazza bo'ldi zaxchaga,
Arzimagan aqchaga.
Telefon sotib oldi,
Va g'ijof topib oldi.
Qo'zi, qulun, uloqni,
Maynani, qarqunonqni,
Bayram bilan qutladi,
Chittakni unutmadi.
Gulzorga bordi dovlab,
So'ngra, chigirtka ovlab,
Dildan yuadi g'uborni,
Zag'izg'orni tabriklab,
SMS ham yubordi...

QUTLOV

Rassom surat chizari edi
Kangli galamda.
So'gmoq yo'lda rags tushar
Yomg'ir shu damda.
So'ngra, o'tlob archa shoxin
Yuadi charchog'in.
Turfa gullar qopladi,
Bobomning bog'in.
Tomchilarida ko'lmak aksin
Kuylar arqicha.
Quyun o'zin kungga toblab,
Qaltilrar picha.
Ona kirpi to'nka uzra
Sakraydi hatlab.
Rassom ishlar quyoshi -
Kunni sharaftlab.

MANZARA



CHIGIRTKA

G'ashga tegdi chigirtkalar,
Arpazorda chirillab.
Bir to'p chumchuq uchib keldi
Qayyodandir gurillab.
Ha, ularning bu tashrifi,
Dehqonlarga em bo'ldi.
Boshqoq qirqqan mo'r-malaxlar,
Parrandaga yem bo'ldi.
Yerga tushgan don-dunlarni,
Asta tashir chumoli.
Janjal bilan ishlari yo'q,
Yashar xotirjam, xoli.
Bu holatni chigirtkalar,
Ko'rsa, bilsa, uqsaydi.
Chumolining kamtarligi,
Ularga ham yuqsaydi.



LAXTAK BULUT

Saratonning so'rog'i,
Avj olar o'rim chog'i.
Ishga tushdi nihoyat,
Dehqon bobom o'rog'i.
Chug'urchiqlar churq etmas,
Panaroq joy topishgan.
Faqat ziyrak chumoli,
Tolmas ekan chopishdan,
Tog'am otin yetaklab,
Chiqdi bedapoyadan.
Laxtak bulut osmonga,
Suzib o'tdi qoyadan.
Dehqon-u chumoliga,
Bo'ldi tansiq soyabon.
Uni qullar, olqishlar
Qirning sada, archasi.
Tog'larda turmaklangan,
Bulutlarning barchasi.
Sabab, salqin ulashar.
Laxtak bulut parchasi.

Erta tongda Azizbek to'rtqushlarining ovoizidan uyg'onib ketdi. Yuz-90'llarini yuvgach, qushlariga don, suv berdi. Chunki ularni parvarish qilish, vaqfida ovqatlanirish, qafaslarini tozalash uning zimmasida.

PARVOZIDAN QUVONCH OLAMAN

ZUHIKA olgan surat



– Qushlarni parvarishlash juda maroqli ish, – deydi Azizbek biz bilan suhbatda. – Masalan, mana buning nomi «Qiro'l to'rtqush». U o'zining baland ovozi, erta tongda chiroyli sayrashi bilan boshqa qushlardan ajralib turadi. Mana bunisi esa «Gajakdor to'rtqush» deb nomlanadi. To'rtqushlar asosan, juft bo'lib yashashadi. Ular aslida Afrikaning janubiy o'rmonlarida yashaydi. Hozir qushlarimning soni 30 dan oshdi. Ularning ko'payishi uchun alohida joy zarur bo'ladi, har 3 oyda 6–8 tagacha

tuxum qo'yadi. Bir oy davomida palapon tuxumini yorib chiqadi. Jajjigina palaponlarning dunyoga kelishi uchun issiq harorat juda muhim. To'rtqush bolalariga odamning qo'li tegsa yoxud tomosha qilinaversa, ona to'rtqush o'zi bolasiga zarar yetkazib qo'yishi mumkin. Shuning uchun ham jo'ja ochish davrida qush boqiladigan xonaga kirish man etiladi. Ularni meva, turli ko'katlar, tariq berib boqaman.

Yorqin patlarini ko'z-ko'z qilib, tinmay chug'urlyotgan qushlarning sayrashidan ko'nglimiz ko'tariladi. Azizbekdan qushlarning yana bir jihatini bilib oldik: ular janjalkash, yomon kayfiyatda yurgan odamlarni sira yoqtirmas ekan. Mabodo, bunday odamlar hovliga qadam qo'ysa, bir-varakayiga sayramay qo'yisharkan.

– Agar biror narsadan xafa bo'lsam, qushlar boqiladigan xonaga kirmayman. Bu qanotli do'stlarimga yomon ta'sir qilishi mumkin, – deydi Azizbek.

Aytgancha, tengdoshingiz Azizbek Nig'matov poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 63-umumta'lim maktabining 5-«B» sinfida a'lo baholarga o'qiydi. U qushlarni parvarish qilish bilan birga, bo'sh vaqtlarida rasm chizishga qiziqadi. Shuning uchun ham tengdoshingiz bir necha yildan buyon Shayxontohur tumanidagi Bolalar ijodiyot markazi qoshida tashkil etilgan tasviriy san'at to'garigiga qatnaydi.

– Men tasviriy san'atning miniatyura yo'nalishiga qiziqaman. Ayniqsa, o'zbek xalq dostonlari, ertaklar, qardosh xalqlar eposi qahramonlarining rasmini chizishni yoqtiraman, – deydi u.

Biz Azizbek bilan xayrlasharkanmiz, unga ijodiy barkamollik tiladik.

Bolajonlar, bugun biz sizlarga qushlar to'g'risida qisqagina ma'lumot berib o'tdik. Istagimiz, qanotli do'stlarimiz, yana tabiat sanitarlari, deya nisbat beriladigan qushlarni siz ham avaylab-asrang, ularning uyalariga zarar yetkazmang, palaponlariga ozor bermang. Qushlar tabiatning bir bo'laki ekanligini aslo unutmang!

Ozoda TURSUNBOYEVA



Bolalar sporti

Shu yili Namangan viloyatida uch bosqichli sport o'yinlarining o'rtanchasi – «Barkamol avlod – 2014» musobaqalari bo'lib o'tishidan yaxshi xabardorsiz. Ayni paytda ko'plab jamoalar saralash musobaqalarida o'z imkoniyatlarini sinovdan o'tkazishmoqda.

KUHLILAR SARALANDI

Kuni kecha Navoiy viloyatida voleybol bo'yicha qizlar o'rtasida saralash bellashuvlari tashkil etildi. Mamlakatimizning barcha hududlaridan terma jamoalar ishtirok etgan musobaqada Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Namangan va Andijon viloyati voleybolchilari qizlari barcha raqibalarini ortda qoldirib, «Barkamol avlod – 2014» sport o'yinlarining final bosqichiga yo'llanmani

hisoblangan toshkentlik raqibalarini mag'lub etishning uddasidan chiqdilar. Ayniqsa, Shahnoza Musayeva, Kamola Yusupova, Laylo Do'stqulova va Mavluda Ermamatova kabi qizlar o'zlarining tezkor harakatlari, epchilliklari bilan Navoiy viloyati terma jamoasi g'alabasiga munosib hissa qo'shishdi.

– Bolaligimdan voleybol sport turi bilan muntazam shug'ullanaman. Bugunga qadar viloyat miqyosida o'tkazilgan ko'plab musobaqa-



– Davron, eshitdingmi, maktabimizda Navro'zga bag'ishlangan sport tadbirlari o'tkazilar ekan.

– Bo'lmasam-chi, e'lonlar taxtasiga tadbirlar rejasini osib qo'yilibdi-ku.

– Arqon tortish musobaqasi ham bor ekanni?

– Bor.

– Unday bo'lsa, biz ham tezda jamoamizni shakllantiraylik.

O'quvchilarning bu suhbatini tinglay turib, bayramga bag'ishlangan tadbir rejasiga xalqimizning sevimli milliy o'yinlarini kiritib xato qilmaganimizga ishonch hosil qildim.

Joriy yilni Yurtboshimiz tomonidan «Sog'lom bola yili» deb e'lon qilinishi jismoniy tarbiya fani o'quvchilari zimmasiga katta mas'uliyat yukladi. Chunki o'quvchilarimizning sog'lom va barkamol bo'lib o'sishlarida jismoniy tarbiya darsining o'zini beqiyos.

Quvonarlisi, yaratilayotgan shart-sharoitlar tufayli sinfdan tashqari ishlarda bolalar faolligi, sportga qiziqishi ortganligi yaqqol sezilmoqda. Kuni bilan o'quv mashg'ulotlarida qatnashgan o'quvchilar darsdan so'ng stol tenisi, futbol, voleybol


o'yinlarini o'yinab, hordiq chiqarmoqdalar.

Bu yilgi Navro'z tantanalarini munosib kutib olish uchun barcha sinflar orasida turli musobaqalar tashkil etdik. Bu tadbirlar sport o'yinlaridagina iborat bo'lmay, maktab obodonchiligi, sinflar tozaligi, bayramga bag'ishlangan devoriy gazetalar tanlovlaridan iborat bo'ldi.

O'quvchilarimiz sport musobaqalarida faol ishtirok etdilar. Ayniqsa, varrak uchirish bahslari barchani sport maydonchasiga jamladi. Arqon tortish bellashuvlarida esa hayajon yanada ortdi.

Musobaqalar yakuni Navro'zga bag'ishlangan tadbirda e'lon qilindi. «Eng tezkor jamoa», «Eng chaqqon jamoa» nominatsiyalari bo'yicha g'oliblar aniqlanib, ularga «Faxriy yorliq» va esdalik sovg'alari topshirildi. Eng asosiysi, o'quvchilar qalbida milliy o'yinlarimiz va sportning ko'plab turlariga qiziqish ortib borayotganidir.

Odiljon NURBOYEV,
Namangan shahar 2-DIMI jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi



qo'lga kiritdilar. Do'stlik, halollik, xolislik, raqibga hurmat kabi tamoyillar bosh mezon qilib olingan musobaqada, ayniqsa, navoiylik sportchi qizlarning ishtiroki ko'pchilikda katta taassurot qoldirdi. E'tiborlisi, ular «Barkamol avlod – 2014» sport o'yinlarida ishtirok etishga asosiy da'vogar

larda ishtirok etganman. «Barkamol avlod» sport musobaqalarida qatnashish esa men kabi ko'plab yosh sportchi qizlarning orzusidir, – deydi Navoiy viloyati terma jamoasi a'zosi, Xatirchi qishloq xo'jalik kasb-hunar kolleji o'quvchisi Laylo Do'stqulova.

S. TURSINOV

«SHUMTAKALAR»

MEHMONIMIZ

Shum-shum, taka-taka-shum! Bu so'zlarni o'qishingiz bilan o'z oldingizga sevimli ko'rsatuvingizga aylangan «Shumtakalar» hajviy telejurnali keladi-a? 1-aprel – Kulgi va hazil kuni arafasida sizni ana shu ko'rsatuv ijodkorlari va sizga kulgi ulashayotgan tengdoshlaringiz bilan yaqindan tanishtirishni rejalashtirdik. Shu maqsadda ko'rsatuv muallifi va rejissori Dilnoza opa Turdiqulova bilan suhbatlashib, ushbu telejurnalning tayyorlanish jarayoni haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ldik.



Xonaga kirganimizda, ko'rsatuvning dam olish kunlarida efigra uzatiladigan sonlarining montaj jarayoni ketayotgan ekan. Dilnoza opa bizni eng faol ishtirokchi, bir qancha rollarni qoyilmaqom qilib ijro etgan Umarbek bilan tanishtirar ekan, ekranga qarab, «Mana shu yerda uzoq vaqt yig'lagudek bo'lib turishing kerak edi», deya yosh aktyorga bir nimalarni tushuntira ketdi.

Poytaxtimizning Shayxontohur tumandagi 169-maktabning 7-sinf o'quvchisi Umarbek Olovuddinov kelajakda aktyor bo'lishni orzu qiladi. U o'z ustida ishlashdan, mehnat qilishdan sira erinmaydi. Aksincha, hamma yumushlarni o'z vaq-



tida bajarishga harakat qiladi. Bo'sh vaqtlarida esa sportning futbol turi bilan shug'ullanish uchun «Yoshlik» sport majmuasiga qatnaydi. Maktabda ham barcha fanlardan a'lo bahoga o'qiyotgan qahramonimiz, ayni paytda ingliz tilini mukammal o'rganmoqda.

– Telejurnalimizning tashkil etilganiga ikki yil to'layotgan bo'lsa, bu vaqt davomida Umarbek eng faol ishtirokchimizdan biriga aylandi. Bundan tashqari, Hamza tumanidagi 282-maktabning 5-sinf o'quvchisi Madina Ozodova, shuningdek,

Akbar Saydullayev va eng kichik yoshdagi qatnashchimiz Burhon Abdurashidov, Xadicha Hojiyeva haqiqiy «shumtaka»larimizdir. Shu o'rinda g'oya muallifi Nozim Bobojonovning mehnatlarini alohida ta'kidlab o'tishni istardim, – deydi ko'rsatuv muallifi.

Aziz bolajonlar! «Shumtakalar»da ana shunday gaplar! Teleko'rsatuvni kuzatishda davom eting, ayniqsa, uning bayram sonini ko'rishni unutmang!

Sayyora QODIROVA

Bo'sh o'tirmay, bosh qotir!

NECHTA «QIZIQ» so'zl bor?

Aylanalardagi harflarni turli yo'nalishlar bo'yicha o'qish bilan nechta marotaba «Qiziq» so'zini o'qish mumkinligini toping-chi...

Husan ORIPOV tuzdi

JONIVORLAR OLAMI

Qadri bolajonlar! Bugun sizlarga qanotli do'stlarimizdan biri kaptar haqida ma'lumot bermoqchimiz.



Olimlarning fikricha, kaptar odamlar tomonidan qo'lga o'rgatilgan birinchi qush hisoblanar ekan. Ilk xonakilashtirilgan kaptarning naslboshisi esa yovvoyi ko'k kaptar bo'lgan.

Bu qushlar, ayniqsa, Janubiy Yevropa, Shimoliy Afrika va Osiyoda keng tarqalgan. Kaptar tanasining uzunligi 29 santimetrdan 36 santimetrgacha bo'ladi. Og'irligi esa 265 grammdan 380 grammgacha yetadi. Uning tashqi ko'rinishiga e'tibor bergan bo'lsangiz, uning boshi yumaloq shaklda bo'lib, uzun va juda harakatchan bo'yin orqali tanaga tutashgan. Shu sababli, bu jonivor bo'ynini istalgan tomonga burishi, tumshug'i bilan patlarini tozalashi mumkin.

Kaptarning sezgi organlari yaxshi rivojlangan. U hatto ranglarni ajrata oladi, manzilni quyoshga qarab aniqlaydi va juda yaxshi eslab qoladi.

Kaptar, asosan, yashil o'simliklar va ularning urug'i, non uvoqlari bilan oziqlanadi. U donlarni butunligicha, yirikroq oziqni esa tumshug'i bilan maydalab, so'ng yutadi.

Kaptarlar o'troq qushlar sirasiga kiradi. Ular daraxt shoxlari, jarliklar, tog' qoyalarining yoriqlari va binolarning bo'g'otlariga uya qurib, ikkitagacha tuxum qo'yadi. Uch haftadan so'ng esa jajji palaponlar dunyoga keladi.

Kaptar odatda besh yilgacha umr ko'radi, tutqunlikda esa o'n besh yilgacha yashashi mumkin.

ZUBAYDA tayyorladi

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar (ilmiy harakati) Markazi, Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

31-mart 2014

TAHRIR HAY'ATI:
Omonulla YUNUSOV,
Abdug'ani XOLBEKOV,
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Feruza JALILOVA,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Sobitxon TURG'UNOV,
Zikrilla TESHABOYEV

Navbatchi muharrir
Axtamqul KARIMOV
Rassom
Feruz MATYOQUBOV
Dizayner
Olovuddin ORIPOV

Manzillimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi – 55367
Buyurtma N: J 9539